

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

SamDVMChBU dotsenti, PhD

nargizanarziyeva09@gmail.com

Homidov Asror Gapparovich

SamDVMChBU o‘qituvchisi

asrorxamidov00@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda jismoniy tarbiya ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligi, motivatsiyasi va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, kasbiy kompetensiya, o‘qituvchi mahorati.

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные виды деятельности учителя физической культуры, их роль и значение в педагогическом процессе с научной, теоретической и практической точек зрения. В исследовании анализируются вопросы формирования физической активности, мотивации и отношения к здоровому образу жизни учащихся посредством использования инновационных педагогических технологий, цифровых инструментов и интерактивных методов в физическом воспитании. Также обосновывается роль инновационных видов деятельности в развитии профессиональных компетенций учителя физической культуры.

Ключевые слова: физическое воспитание, инновационные виды деятельности, педагогические технологии, цифровое образование, профессиональная компетентность, навыки учителя.

INNOVATIVE ACTIVITY OF A PHYSICAL EDUCATION TEACHER

Abstract. This article discusses the innovative activities of a physical education teacher, their role and significance in the pedagogical process from a scientific, theoretical and practical perspective. The study analyzes the issues of forming students' physical activity, motivation and attitude to a healthy lifestyle through the use of innovative pedagogical technologies, digital tools and interactive

methods in physical education. The role of innovative activities in the development of professional competencies of a physical education teacher is also substantiated.

Key words: physical education, innovative activities, pedagogical technologies, digital education, professional competence, teacher skills.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya fanining mazmuni va uni o'qitish metodikasiga ham yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat jismoniy mashqlarni o'rgatuvchi mutaxassis, balki innovatsion fikrlovchi, pedagogik jarayonni samarali tashkil eta oladigan va zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan yetuk pedagog sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda. Shu bois jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati mazmuni. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati ta'lim jarayoniga yangi g'oyalar, metodlar, texnologiyalar va vositalarni joriy etishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Ushbu faoliyat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning mustaqil fikrlash, sog'lom turmush tarziga ongli munosabat bildirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyat doirasida o'qituvchi interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv, o'yin texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa darslarning qiziqarli va samarali tashkil etilishiga imkon yaratadi.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, fitnes-trekerlar va virtual mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish va baholash imkonini beradi.

Shuningdek, aralash va masofaviy ta'lim elementlaridan foydalanish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash, mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Bu esa jismoniy tarbiya ta'limining uzluksizligini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati uning kasbiy kompetensiyalari bilan bevosita bog'liq. Bunga pedagogik, metodik, raqamli va kommunikativ kompetensiyalar kiradi. Innovatsion kompetensiyalarga ega o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali rejalashtira oladi, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy, jismoniy sifatlarini ko'rib chiqamiz 1. Kasbiy sifatlar jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy sifatleri uning pedagogik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Bu sifatlar quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagogik mahorat. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi samarali dars o'tish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, turli jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarish usullarini o'rgatish kabi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur.

2. Motivatsiya va liderlik. O'qituvchi o'quvchilarda jismoniy faollikni targ'ib qiladigan va ularda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadigan motivatsion qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki ularga namuna bo'ladigan shaxs bo'lishi zarur.

3. Pedagogik psixologik bilimlar. O'qituvchining pedagogik psixologik bilimlarga ega bo'lishi uning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, turli xulq-atvor muammolarini hal qilish va individual ehtiyojlarga moslashish imkonini beradi.

4. Innovatsion yondashuvlar. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yangi pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning jismoniy tarbiya darajasini oshirishi kerak. Bu, o'z navbatida, kasbiy malakani oshirishga yordam beradi.

Jismoniy sifatlar jismoniy tarbiya o'qituvchisining jismoniy sifati uning ish faoliyatini samarali bajarish uchun muhimdir. O'qituvchining jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lishi nafaqat o'zining sog'lomligini saqlash, balki o'quvchilarga ham sog'lom turmush tarzini o'rgatish imkonini yaratadi. Chunonchi:

1. Jismoniy mustahkamlik va chidamlilik. O'qituvchining yaxshi jismoniy tayyorgarligi dars jarayonida uzoq vaqt davomida jismoniy mashqlarni bajarish, o'quvchilarga namuna bo'lish va darslarni sifatli o'tkazish uchun zarur. Bu sifat jismoniy tarbiya o'qituvchisining faolligini va o'quvchilarga motivatsiya berish imkoniyatlarini oshiradi.

2. Koordinatsiya va moslashuvchanlik. O'qituvchining yaxshi koordinatsiya va moslashuvchanlikka ega bo'lishi darslar jarayonida samarali harakatlar qilish, jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarishda yordam berish va o'quvchilarga to'g'ri namuna bo'lish uchun muhimdir.

3. Jismoniy sog'lomlik. O'qituvchining sog'lom bo'lishi, uning jismoniy holati va psixologik salomatligi ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi. Sog'lom o'qituvchi nafaqat o'zining jismoniy imkoniyatlarini yaxshi ishlata oladi, balki o'quvchilarga ham sog'lom hayot tarzini targ'ib qiladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining jismoniy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish yo'llari to'xtaladigan bo'lsak ularni quyidagicha keltirish mumkin:

1. Doimiy jismoniy mashqlar. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'zining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun muntazam ravishda jismoniy mashqlar bajarishi zarur. Bu, o'z navbatida, uning umumiy jismoniy holatini yaxshilaydi va o'quvchilar uchun yaxshiroq namuna bo'lishiga yordam beradi.

2. Pedagogik malakani oshirish. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish, ularning pedagogik ko'nikmalarini va kasbiy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu o'qituvchining kasbiy samaradorligini oshiradi.

3. Innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash orqali o'z faoliyatini samarali qilishlari mumkin. Bu metodlar o'quvchilarga jismoniy tarbiya bilimlarini yanada qiziqarli va samarali tarzda yetkazish imkonini beradi.

4. O‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlantirish. O‘qituvchining o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kasbiy va jismoniy sifatlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Doimiy ravishda o‘zgarishlarga moslashish, yangi pedagogik tajribalarni o‘rganish va o‘z ustida ishlash o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta‘minlaydi [6].

Shuningdek, o‘qituvchining doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, malaka oshirishi va yangi pedagogik tajribalarni o‘rganishi innovatsion faoliyatning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning jismoniy va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslari sog‘lom, faol va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
2. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Ученые: University of Minho*, 18, 187-194.
3. Narzieva, N. N. (2024). Development of research competencies in the conditions of integrated education in students on the base of a competent approach. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(2), 16-21.
4. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
5. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
6. Нарзиева, Н. (2017). Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
7. Narzieva, N. N. (2017). Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach. *www.auris-verlag.de*.
8. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
9. Narzieva, N. N. (2023). OLIY TA'LIM O 'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O 'QITUVCHILARI

MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. 2016 No. 6 (100/1), 100(66), 5-10.

10. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.

11. Ulugmurodova, G. F., Nurmanova, N. N. Z., & Musayeva, N. A. (2020). SINF DAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, (29), 55-56.

12. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).

13. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.

14. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Ҳ. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.